

IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING TAVSIFLANISHI QOIDALARI

To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna

Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi katta o`qituvchisi

Mavluddin Safariy

Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Al Buxoriyning hayot va ijod yo`li haqida bo`lib, Imom Al-Buxoriyning hadis kitobi 1322 ta hadislardan tafsir qilingan va uning kitobining nomi “Al- Adab Al-mufrad” ya`ni “adab durdonalari” asari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Maqolada asarlarining hozirgi kunda o`rganilishi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so`z: Roviy, hadis, tafsir, muhaddis.

Imom Al-Buxoriya olimlarimiz ko`plab ta`riflar bergan. Asli ismi Ismoil Buxoriy bo`lib, 810-870-yillarda yashagan. Abu Abdullah nomi bilan ham mashhur bo`lgan. Abu Abdulloh ya`ni arabcha Abdullohnинг отаси деган ма`noni anglatadi. Imom Al-Buxoriyning отаси ham hadishunos roviy bolgan. Imom Al-Buxoriy 5-6 yoshlaridan diniy madarasalarga borib, Qur`on va hadisdan ilmlarni yod oladi va u hadis kitoblarini yaxshi o`qiydi. Qur`on, y`ani Allohning kalomi dunyo bo`yicha birinchi o`rindagi kitobdir va undan keyingi ikkinchi o`rindagi kitob Imom Al-Buxoriyning hadislari to`plangan “Jome us-sahih” kitobidir. Bu kitobdan butun dunyo musulmonlari foydalanadi. Imom Al-Buxoriyning hadis kitoblari juda muqaddas bo`lib, bu kitob barcha musulmon mamlakatlarida qo`llaniladi. Agar O`rta Osiyolik ayniqsa, O`zbekistonlik ziyoratchilar hajga Saudiya Arabistonni borishsa arablar uni juda hurmat qildilar va ularga, siz Imom Al-Buxoriyning ziyoratiga borganmisiz deb savol berishadi. Saudiya Arabistonidagi ba`zi ko`chalarga Imom Al- Buxoriyning nomi berilgan va hozir ham shunday nomlanadi. Imom Al-Buxoriy nomi bilan nomlangan ko`chadgi Masjid, Madrasa, Maktab va Bog`chalar Imom Al-Buxoriyning nomi bilan ataladi. Butun Arabiston va barcha musulmon mamlakatlar Imom Al- Buxoriyning hadislardan unumli foydalanadi har mamlakatda Imom Al- Buxoriyning hadis kitoblari juda ko`p qo`llaniladi. Imom Al- Buxoriyning hadis kitobi 1322 ta hadislardan tafsir qilingan va uning kitobining nomi “Al- Adab Al- mufrad” ya`ni “adab durdonalari” asari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu asar dunyodagi islomiy mamlakatlarda jumladan Pokiston, Qozog`iston, Qirgiziston, Misr, Iroq, Suriya, Afg`oniston, Iron, Hiduston, Bahrayn, Urdun, Turkmaniston, O`zbekiston, Ozorboyjon kabi mamlakatlarda keng qo`llaniladi va Imom Al-Buxoriy hadislarini o`z hayotlarida qo`llaydilar. Imom Al- Buxoriy rahmatullohi alayhi o`z hayotlari davomida ko`p marotaba sermahsul safarlarda bo`ladilar. U kishi o`z zamonasida qariyb barcha islomiy mamlakatlarga safar qilgan. Ba`zi birlariga esa bir necha marotaba safar qilganlar. “Men Suriya, Misr va Arabiston yarim orollarini ikki marta ziyorat qildim” deb aytadi. Bundan tashqari Imom Al- Buxoriy bir necha marotaba Basrada bo`lgan va olti

yil Hijozda (Saudiya Arabistonida) yashagan. Kufa va Bag`dod shaharlariga ham bir necha marotaba safar qilgan.

Imom Buxoriy barcha safar qilgan yerlari muhaddislariga uchrashib, ulardan bilim olgan. Imom Al- Buxoriyning o`zi dars oladigan ustozlarining ba`zisi Imom Buxoriyning o`zidan dars olishgan. Bu esa allomaning ilmi g`oytda keng qamrovliligi bilinadi.

Imom al- Buxoriy hadis talabida umrlarining ko`p qismini safarlarda o`tkazgan. Bularni yuqorida aytib o`tdik, shuning uchun ham u kishining ustozlari juda ko`p bo`lgan. Olimlarning aytishicha, Imom Al-Buxoriyning ustozlarining soni 90 ta atrofida bolib, ular Muhammad Ibn Yusuf Al-G'arobi, Ubaydulla Ibn Muso Al-Abasiy, Abubakr Abdulla Ibn Az-Zubayr Al-Hamidiy Ibn Rohaviyh nomi bilan mashhur bolgan. Imom Ishoq Ibn Ibrohim, Imom Ahmad Ibn Hanbal, Ali Ibn Al-Madaniy va boshqalar ham bo`lgan. Imom Al-Buxoriy nafaqat yirik olim balki o`zining muruvatliligi, himmatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamoman ajralib turgan. Imom Al-Buxoriyning zehni o`tkirligi va yodlash qobilyatining kuchliligi bilan u xalq orasida g`oyat aziz bo`lgan. Al-Buxoriyninga 600 mingga yaqin hadisni yoddan bilganligi kiritilgan.

Imom al- Buxoriyning 1974- yilda o`rta osiyo va Qozog`iston musilmonlari diniy boshqarmasi tashabbusi bilan butun Islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200 yillik yubileyi nishonlangan. Uning shoh asarlari hisoblagan. “Al-Jome us-sahih” va “Al-Adab mufrad” kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinshi, Imom Buxoriy merosini o`rganishda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Toshketdagi diniy masjidning Imom Al- Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o`n ikki asr muqaddam ilm-fan yo`lida beqiyos xizmat qilgan buyuk olimga chqur hurmat- e`tiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog`ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko`rkam qadamjolardan biri sifatida ardoqlanib, Islom ahli va barcha insonlar uchun tabarruk ziyyaratgoh sifatida mashhurdir.

1998- yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan buyuk hadisshunos Allomaning 1225 yillik tavallud kuni keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat va ehtirom ila nishonlanib, uning maqbarasi qayta quruldi.